

TONG Yulduzi

№13 (66398)
2003 yil
31 mart
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan.

YURAKDAGI «SHUM BOLA»

Ulug' adibimiz, beqiyos shoir- G'afur G'ulom o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biridir. Yozuvchining qalbida kechgan nafis kechinmalar uning she'rlarida yanada go'zalroq aks etgan.

Shoir 9 yoshida otasidan ajragan emasmi, u o'z hayotidagi chalkashliklarni «Shum bola» qissasida mohirona aks ettirib bergan.


Oktabr to'ntarishidan so'ng, yetim qolgan bolalarning tarbiyasi bilan shug'ullangan. Bu bolalarga dalda bo'lish, ularning yarimta ko'nglini butun qilish uchun bor kuchlarini sarflagan. Ayniqsa, ikkinchi jahon urushi yillarida norasida go'daklarning boquvsiz qolishi, uni «Sen yetim emassan» she'rini yozishga undaydi.

G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasi o'quvchilar yuragida o'chmas iz qoldiradi. Bu qissani o'qir ekansiz, bir bolaning boshidan kechirganlari bir kitob bo'lishi mumkinligiga ishonch hosil qilasiz va buyuk adibning yozuvchilik mahoratiga tan berasiz.

Yozuvchining tavallud ayyomi 10 mayda bo'lishiga qaramay, tadbirlar mart oyidan boshlab yuboriladi. G'afur G'ulom hozirgi - Mustaqillik yillarida oldimizda bo'lganlarida juda soz bo'lar edi. Lekin adibning o'zi bizning oramizda bo'lmasalar ham, u kishining ruhi yozgan asarlarida abadiy yashaydi.

V. QARSHIBOYEVA,

A. Avloniy nomli 328- maktabning 7- «A» sinf o'quvchisi.



Dadam televizordan «Axborot»ni ko'rayotganlarida, biz xalaqit bermasligimiz, shovqin solmasligimiz lozim. Ularning aytishlaricha, bu ko'rsatuv orqali juda jiddiy voqealarni ko'rsatisharkan.

Tunov kuni ana shu ko'rsatuv orqali Iroqda sodir bo'layotgan nohush voqealarni namoyish etishdi. U yerda urush bo'layotgan ekan. Tinch boshpana izlab yugurib ketayotgan otalarining qo'llaridan tutgan qo'rquv va dahshat ichidagi bolakaylarni ko'rib, ularga juda achinib ketdim. Yana bir ko'rsatuvda Iroq rahbari

BO'YIM OSMONGA YETDI

Saddam Husaynning o'z xalqiga nisbatan qilgan nohaqliklari, xunrezliklarini ko'rsatishdi.

Nahotki, davlat rahbari bo'la turib, o'z xalqini shunchalik xo'rflasa? Mamlakatdagi osoyishtalikning buzilishiga aynan shu kishi sababchi ekan. Saddam Husaynning 3 ta yer osti qarorgohi bor ekan. U yerda bir necha oy hech narsaga muhtojlik sezmay, har qanday xavf-xatardan xoli yashash mumkin ekan. Demak, Iroq rahbari xalqini o'ylamay, o'zi o'sha yerda jon saqlar ekan-da...

Mening ta'sirlanib tomosha qilayotganimni ko'rgan dadam yonlariga chaqirib: - Mana, ko'rdingmi o'g'lim, dunyoda nima gaplar bo'lyapti. Qay bir yurtning rahbari dono bo'lmasa, o'sha yerda tinchlik, xotirjamlik bo'lmaydi. Xalqining boshiga kulfatlar yog'iladi. Biz esa tinch, osoyishta hayot kechiryapmiz. Shu bois ham sizlar mahallalarni to'ldirib, o'ynab-kulib yuribsizlar. Bilim olib, hunar o'rganishingiz uchun yaratilgan shart-sharoitlarni aytmaysanmi?! Bularning bari dono yurtboshimizning dono siyosatlari sharofatidan. Shunday ekan, bu kunlarning qadriga yetinglar. Dangasalik qilmay, o'qib-o'rganinglar. Prezidentimiz orzulaganlaridek, bizdan-da aqlliroq, kuchliroq bo'linglar, - dedilar. Bu suhbatdan so'ng men o'z Prezidentim, dono yurtboshimga uzoq umr tiladim. Davlat rahbarlari sabab yurtimiz tinch, ko'nglimiz xotirjamligidan quvonib, bo'yim osmonlarga yetdi, desam ishonavering.

Bahodir HAKIMOV,

Toshkent shahar, Akmal Ikromov tumanidagi 116 - o'rta maktabning

6 - «V» sinf o'quvchisi.

OBOD MAHALLAM MENING

Bizning «Navbahor» nomli mahallamizda 11 dan ortiq millat vakillari istiqomat qilishadi. Mavjud 3800 dan ziyod aholi hamda 639 dan ortiq oilaning barchasi tinch-totuv yashashadi. «Obod mahalla» yiliga bag'ishlab o'tkazilayotgan turli tadbirlar yoshlarning ongiga mahallani asrash, odamlarni avaylash tushunchalarini singdiradi. Mahallamiz raisi Ravshan aka Hakimov har bir ishda mahalladoshlarga doimo bosh-qosh bo'lib kelmoqda. Jumladan, mahalla hududidagi sartaroshxona, ustaxona, aholiga tibbiy yordam ko'rsatish xonalari xizmatidan hamma mamnun. Ayniqsa, kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan oilalarga mahalla tomonidan hamisha yordam beriladi. Yoshlarni mehnatga tayyorlash borasida ham birmuncha ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Ular uchun shaxmat to'garaklari, chevarlik to'garaklari mavjud. Mahallada to'y hashamlarda qo'ni-qo'shnilar doimo birgalashib bir-biriga ko'mak berishadi. Ayniqsa, qariyalarning ahvolidan hamisha xabardor bo'lib, qo'ldan kelgan yordamini ayamaydi. Biz ham oila a'zolarimiz bilan farzandsiz qariyalarnikiga kirib ularning uy ishlariga yordamlashamiz.


Mahallamizda Navro'z bayramiga qizg'in tayyorgarlik ko'rildi. Daraxtlar shoxlarini tekislab, yon-atrof chinniday tozalandi. Har yili mahallalararo o'tkaziladigan ko'rgazmaga ham qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqdamiz.

Xullas, mahallamizda ibrat olsa arzigulik hayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Mahallamizga tashrif buyuring, bunga o'zingiz guvoh bo'lasiz.

Sen muqaddas ona Turkiston,
Ajdodlari o'sgan makonsan,
Mudom ezgu hislarga konsan,
Obod mening mahallam,
Ozod mening mahallam.
Ibn Sino, At-Termiziy,
Navoiy, ham Al-Buxoriy,
Mirzo Bobur o'sgan diyor,
Obod mening mahallam,
Ozod mening mahallam.
Dillar ravshan, qalblar yoniq,
Mehrning buloq shaffof-tiniq,
Sadaf ichra dursan aniq,
Ozod mening mahallam,
Obod mening mahallam.
Guzari bor, gavjum bozori,
Gar izlasang topilar zari,
Madhing bitar qalbinning tori,
Obod mening mahallam,
Ozod mening mahallam.
Munavvar tong chog'laringda,
Navro'z kezar bog'laringda,
Shalolalar tog'laringda,

Obod mening mahallam,
Ozod mening mahallam.

Mehrinoz ALIYEVA,
Andijon shahar, 1-Gimnaziyaning 7 - «V» sinf o'quvchisi.



Tengdoshingiz Sitora HAZRATOVA Navoiy viloyati, Navbahor tumanining chekka qishloqlaridan birida yashaydi. Firdavsiy nomli 5 - maktabning 4- «A» sinfida o'qiydi. Sinfidagi a'lochi, namunali o'quvchilardan. Yana bir-biridan ajoyib rasmlar ham chizadi. Ushbu rasmini «Mahallam obod bo'ladi» deb nomlabdi.

XUSH KELIBSAN, XUSHRO'YGINA NAVRO'ZIM!

Navro'z shukuhi
hali hamon
yurtimiz uzra
kezib yuribdi.
Bayramni
bayramdek
o'tkazish uchun
1-Toshkent
pedagogika
kollejining ustoz va



talabalari ham katta tayyorgarlik ko'rishdi.

Erta tongdan doshqozonlarga sumalaklar solindi. Shu dargohdan o'tganlarni xotirlab nuroniy otaxonlarga dasturxon yozildi. Keyin talabalar ustozlari yordamida tayyorlagan bayram dasturlari namoyish etildi. Kollejning 600 o'rinni tomoshalar zali mehmonlar bilan to'ldi. Karnay-surnay sadolari



bilan boshlangan tantana folklor dasturining chiqishiga ulanib ketdi. Bayram hazillari, ommaviy raqslar, sahna ko'rinishlari maroqli bo'ldi. Tadbir davomida kollej direktori Minavvara Ismoilova fidoiy ustozlarga «Faxriy yorliq»lar topshirdilar.

Jamoaga bayram ko'rki bo'lgan sumalak tarqatildi. Bahorni, Navro'zni sog'ingan dillar kelajakka umid bilan boqib, ulkan orzular qanotida tarqalishdi.

Nargiza VALIYEVA,
1-Toshkent pedagogika bilim yurti talabasi.

Mening maktabim


bosqichiga yo'llanma olishgani bunga misoldir. Maktabda sport, sog'lomlashtirish to'garaklari

Fasllar erkasi suluv navbahor borliqni gulchechaklarga burkadi. Yashash zavqi har bir insonni ezgu ishlar sari yetaklamoqda. Ana shu ezgu ishlar

KO'CHAT EKIB BOG' YARATAYOTGANLAR

borasida bugungi yoshlar qanday ishlarni amalga oshirmoqda? Yakkasaroy tumanida joylashgan 118 - o'rta maktab hovlisiga kirib borarekanmiz, bir guruh o'quvchilarning mevali daraxtlar ekayotganini guvohi bo'ldik.

-Biz, - deb suhbatni boshladi biologiya



o'qituvchisi Sh.Hamidova, - «Obodonlashtirish va ko'kalamlashtirish oyligi»da faol ishtirok etish maqsadida 11- «A» sinf o'quvchilari bilan maktab bog'ida turli-tuman ko'chatlar o'tqazayapmiz.

-Do'stlarim-bilan ekan ko'chatlarimiz,-deydi ko'zlarida quvonch porlab Sardorjon, - maktabimiz husniga husn qo'shadi, mevalari pishganda esa ukalarimiz mazza qilib yeyishadi.

Maktab 2001-2002 o'quv yilidan boshlab ingliz tiliga ixtisoslashgan ekan. Maxsus lingafon vositalari bilan jihozlangan xonalarda o'z kasbining ustalari Z.Hoshimova, G.Nurmatova, R.Qo'chqorova, Sh.Rafiqova kabi ustozlar o'quvchilarga chuqur bilim berishmoqda.

Maktab jamoasi yoshlarning huquq sohasida o'z bilimlarini kun sayin oshirib borishlariga yetarli sharoit yaratib bergan. «Temur avlodi - adolat qalqoni» guruhi «Sen qonunni bilasanmi?» ko'rik tanlovining tuman bosqichida muvaffaqiyatli qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritishgani va shahar



ham muntazam faoliyat ko'rsatib kelmoqda, bu yer doimo yoshlar bilan gavjum.

-Men, - deydi ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi D.Nabiyeva, - o'quvchilarimni «Navro'zing muborak-

O'zbekistonim» deb nomlangan bayram tomoshasiga tayyorlar ekanman, yoshlarning qalbida milliy qadriyatlarimizga hurmat, ona yurt kelajagiga ishonch ruhini chuqur his qildim. Zero, yoshlar yurt, Vatan kelajagidir.

Biz ushbu bilim maskanidan mamnuniyat bilan qaytar ekanmiz, u yerda bilim olayotgan o'quvchilarning g'ayrat-shijoatiga yana bir karra ofarinlar aytib xayrlashdik.

Abduhamid ABDUG'AFFOROV.

Kattalar, e'tibor bering!

MILLIONLAR O'YINI

Millionlar o'yini deb nom olgan futbol bizning o'yindir.

Biz sinfdoshlar futbolga qiziqamiz va tez-tez musobaqalar uyushtiramiz. Sinflararo, maktablaru mahallalararo o'tkazilgan futbol musobaqalarida o'z yutuq va kamchiliklarimizni kuzatib borayapmiz. Ammo katta futbol musobaqalarida ishtirok etish uchun albatta katta mehnat kerak ekan. Qolaversa, futbolga ixtisoslashgan maktabda o'qish muhim ahamiyatga egadir. Biz ham ana shunday sport maktabida o'qishni juda xohlardik. Kelgusida o'z ustimizda tinimsiz mashq qilib, O'zbekistonimiz bayrog'ini baland ko'tarishni istaymiz. Bizga yo'l ko'rsating.

Zohid ALLAYOROV,

Dilshod EGAMOV,

Orif MURODOV,

Samarqand viloyati, Poyariq tumanidagi

35 - maktabning 9- «A» sinf o'quvchilari.

Opalaringiz yozadi

IMKONIYATDAN FOYDALANING

Barchaga ma'lumki, hozirgi paytda ta'lim jarayoniga katta e'tibor berilmoqda. O'quvchilarga, talabalarga, umuman aytganda izlanuvchan, bilimga chanqoq yoshlarga katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Jumladan, Nizomiy nomli TDPUda ham talabalarga S.Rajabiy, Ibn Sino, Beruniy nomli stipendiyalarning tavsiya etilishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Kuni kecha Nizomiy nomli TDPUda Prezident stipendiyasiga tanlov e'lon qilindi va bunga nomzod talabalar bilan tadbir o'tkazildi. Shubhasiz, ma'lum vaqt o'tgach, nomzodlar orasidan eng saralari tanlab olinadi va mukofotlanadi.

Aziz ukajonlarim va singiljonlarim! Siz ham yaxshi o'qishga, a'lo baholar olishga harakat qiling. Bu siz uchun kelajakda Oliy o'quv yurtlariga qiynalmay kirishga va o'zingiz xohlagan kasbni, hunarni egallashga poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Dilfuza ORIFJONOVA,

Nizomiy nomli TDPU «BT va Defektologiya»

fakulteti talabasi.

Qahramonning maktabi

Hozirgi kunda yoshlarimizning xorijiy davlatlarda o'qishlari uchun ko'plab qulayliklar yaratilgan. Buning uchun esa ular avvalo, xorijiy tillaridan birini, ayniqsa ingliz tilini yaxshi bilishlari lozim. Bizning

TIL BILGAN EL BILADI

Nuriddin Nosirov nomli 273 - maktabda chet tilini o'rganish bo'yicha ibratli ishlar yo'lga qo'yilgan. Yosh murabbiy Sayyora G'ulomova o'quvchilarning sevimli ustoz. U o'quvchilar bilan qiziqarli dars olib boradi. Yaqinda Sayyora G'ulomova ingliz tili bo'yicha ochiq dars o'tkazdi. Darsda maktabimiz direktori O'zbekiston Qahramoni Mavluda Ismatova hamda o'qituvchilar qatnashishdi. «Mustaqil O'zbekiston» mavzusidagi bu ochiq darsda 5-6-sinf o'quvchilari ishtirok etishdi. Bolalar ingliz tilida sahna ko'rinishlari, she'r, maqollar aytishdi va O'zbekistonning milliy ramzlarini erkin tasvirlab berishdi. Dars davomida o'quvchilar vaqtini qanday o'tganini sezmay qolishdi. Sayyora G'ulomovaning yangi pedtexnologiya asosida dars o'tishi, o'quvchilarni bahsga torta olishi, ijodkorligi, san'atkorligi tufayli darsda hech kim zerikmadi. Dars nihoyasiga yetgach, maktabimiz rahbari Mavluda opa Ismatovani suhbatga chorladik:

-Maktabimiz o'quvchilari 1993 yildan buyon bir necha ixtisoslik bo'yicha ta'lim olmoqdalar. Jumladan, tibbiyot, huquqshunoslik, iqtisodiyot, texnika va pedagogika sohalarida. Hozirgi kunda maktabimizda ingliz tili bilan bir qatorda rus tilini ham chuqurlashtirib o'qitishni yo'lga qo'yganmiz. Ushbu sa'y-harakatlarimiz o'z samarasini beryapti. Vatanimizning porloq kelajagi shu kunning izlanuvchan va iqtidorli o'quvchilari qo'lida.


Ma'fura USMONOVA.

«TOMCHI SUVDA HAYOT JILVASI»

Suv - tiriklik manbai, usiz hayot bo'lmagligini juda yaxshi bilamiz. Afsuski, bila turib, ko'pincha uning qadriga yetmaymiz, isrof qilamiz. «Nimani xor qilsang,

tajribalar o'tkazdilar. Kuzatuvlarini tadqiqot daftarlariga yozib borishdi. Har bir o'quvchi amalga oshirgan ishlarini tengdoshlari, ustozlari davrasida himoya qilib berdi. Suvdan tejamkorlik bilan foydalanish lozimligini eslatib turuvchi maxsus belgilar ishlab chiqib, ko'rinarli joylarga ilib

Ayrim xonadonlarda ekinlarni sug'orishda ichimlik suvidan foydalaniladi. Menimcha, bunday maqsadlarda yomg'ir va qor suvlaridan foydalansak bo'ladi. Ular maxsus quvur orqali filtrlari nasos yordamida tortib olinadi va to'g'ri suv yig'ish idishiga yig'iladi. Ekinlarni sug'orish paytida suv taqsimlash bo'limi orqali ariqlarga taqsimlanadi.



o'shanga zor bo'lasan» deganlaridek, keyingi paytlarda nafaqat Respublikamizda, balki butun dunyoda ichimlik suviga bo'lgan taqchilik yanada yaqqolroq sezilyapti. Respublika miqyosidagi «Tomchi suvda hayot jilvasi» nomli ko'rik-tanlovning o'tkazilishidan maqsad ham aynan suvdan tejab-tergab foydalanishga, bu hislatni o'g'il-qizlarimiz ongiga yoshlikdanoq singdirishga qaratilgan. Maktabimiz o'quvchilari mazkur tanlovning birinchi bosqichida juda faol ishtirok etdilar. Maktab binosidagi suv tarmoqlari bilan yaqindan tanishib, mahallada, xonadonlarda, turli tashkilotlarda tadqiqotlar,

qo'yishdi. Natijada o'quvchilarimizning nafaqat uylarida, balki maktabda ham suvdan tejamkorlik bilan foydalanishlariga erishdik. 7 - «D» sinf o'quvchisi Hojiakbar Isroilovning suvni tejash haqidagi g'oyasi hammaga ma'qul bo'ldi. 8 - «A» sinf o'quvchisi Bahodir Daminov, 5 - «D» sinf o'quvchilari Akmal Saidjonov, Azamat Zokirov, 7 - «J» sinf o'quvchisi Murodjon Ziyomammedov kabi ishtirokchilarning foydalanilgan suvlarni qayta tozalab ishlatishning yangi usullari haqidagi fikr-mulohazalari, takliflari eng yaxshi deb topilib, tanlovning keyingi bosqichiga tavsiya etildi.

Ularning ishlari bilan tanishar ekanman, shunday intiluvchan, izlanuvchan, ertangi kunimiz uchun astoydil qayg'uradigan o'quvchilarimiz borligidan juda sevindim. Kelajagimiz ishonchli qo'llarda ekanligiga yana bir bor amin bo'ldim.

Muqaddam YUSUPOVA,

**Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi
249 - maktabning biologiya fani o'qituvchisi.**

Kuniga ikki marotaba tishlarimizni yuvish barchamizga odat bo'lib qolgan. Ular bir-ikki daqiqa davomida yuvilsa, maqsadga muvofiq bo'lishini ham yaxshi bilamiz. Lekin shu fursatda qanchadan-qancha ichimlik suvi isrof bo'lishini xayolimizga ham keltirmaymiz. Men tish yuvganda stakanga suv olib yuvishni tavsiya etaman. Oyoq-qo'llarni ham tog'oraga suv olib yuvish, cho'milganda dushdan foydalanish kerak. Kir yuvilgan mag'zavali suvni to'kib yubormasdan, karam, bulg'or qalampiri kabi ekinlarga sepish lozim. Chunki mag'zava ekinlarga tushadigan shira va bitlarga qarshi kurashda samarali vosita hisoblanadi. Uylarimizda, hovuzlar qurib, bir marotaba ishlatilgan suvlarni saqlab qo'yishni tavsiya etaman. Bu suvlardan mashinalarni yuvishda, hovli-ko'chalarga sepishda, gullarni sug'orishda foydalansak bo'ladi.

Biz «Tuproqshunoslik va Agrokimyo» institutida bo'lib, institut xodimlari ekib, parvarishlayotgan tajriba maydonchasidagi g'o'za ko'chatlarini ko'rdik. Ular bir tup g'o'zaga 150-200 litr suv quyishar, yiliga 3-4 marta sug'orisharkan. Bir tup g'o'zadan esa 170-200 gramm paxta olinarkan. Endi to'qimachilik kombinatiga sayohat qilib, egnimizdagi ko'ylagimizni tayyorlash uchun qancha suv ketishini aniqlamoqchimiz.

Biz hojatxona axlatlarini haydash uchun ham toza ichimlik suvidan foydalanamiz. Menimcha, bunday maqsadlarda qor va yomg'ir suvlaridan ham foydalansak bo'ladi. Qor va yomg'ir yoqqanda tomga yig'ilgan suv maxsus tarnov orqali oqib kelib filtrlanadi va hojatxonaning suv yig'ish idishiga boradi. Bunday suvlar yordamida ekin-tikinlarni ham sug'orsa bo'ladi. Ichimlik suvidan tejalgan pulga o'zimiz uchun kerakli anjomlarni sotib olishimiz mumkin bo'ladi.

Ayni paytda barcha maktablarda «Qizlar davrasi» bo'lib o'tayapti. Jumladan, Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi 225- maktab o'quvchilari ham bundan mustasno emas. Biroq, bu maktabda harbiy-

«Navro'z dasturxonini» deb nomlangan topshiriqni barcha o'quvchilar chiroyli va tez bajarishga harakat qilishdi. «Kim chaqqon?» shartida esa o'g'il bolalarning tikish mahoratlari va tugmani qay darajada to'g'ri qadashlari

7- «YE» sinf o'quvchilari, ya'ni «Shunqorlar» har bir shartni aniq va to'g'ri bajarib, g'oliblikni qo'lgakiritishdi. Ushbu sinf o'quvchilarining bunday yutuqqa erishishida, albatta sinf rahbari, matematika o'qituvchisi

BO'SH KELMANG, 'SHUNQORLAR'

sport sinflari ham bor-da. Ushbu sinflarda faqat o'g'il bolalar ta'lim-tarbiya oladi. O'quvchilar maktabdoshlaridan orqada qolishni istamagan holda «Balli, yigitlar!» tanlovini boshlab yubordilar.

«Balli, yigitlar!» tanlovi yasharish va yashnatish bayrami Navro'z kunlariga to'g'ri keldi. Shuning uchun ham tanlov shartlari bahor, Navro'zga bag'ishlandi.

Tanlovda 7- «YE», 8- «YE» hamda 9- «YE» harbiy-sport sinflari barcha shartlarda faol ishtirok etdi. Ayniqsa,

tekshirib ko'rildi. Shuningdek, «Uyga vazifa», «Pazandalik» kabi shartlarda ham o'g'il bolalarning bu boradagi qobiliyatlari sinovdan o'tdi.

Bundan tashqari, har bir sinf o'quvchilari o'zlarining kichik sahna ko'rinishlarini namoyish etishdi. San'atkorlik bobida ham o'quvchilar bir-birlaridan bo'sh kelmaslikka harakat qilishdi.

Tanlov o'z nomi bilan tanlov-da. Unda albatta g'oliblar aniqlanishi shart.

Oygul opaning xizmatlari katta bo'ldi. «Balli, yigitlar!» tanlovi barcha ishtirokchilarga hamda o'qituvchilarga birdek ma'qul bo'ldi. Bundan keyin ham bu kabi tanlov tez-tez bo'lib turishini va uning shartlarini yanada kengroq, yanada murakkabroq tayyorlashlarini ta'kidlab o'tishdi. O'z navbatida o'g'il bolalar ham onalari-yu opa-singillarining uydagi mehnatlarini qadrlash kerakligini, ularni hamisha e'zozlash va hurmat qilish lozimligini his qildilar.

A.ABDULLAJONOV.

Bizning mahallamiz Qarshi shahrida joylashgan. U «Arai-Ovul» deb nomlanadi. Sababi, qadimda bu yerlar atrofi baland tepaliklar bilan o'ralgan ekan. Oraliqda esa qishloq bor bo'lib, ana shu joyni «Oraliqdagi ovul» deb atasharkan. Shu- shu bo'libdiyu qishloq o'zgarisa ham nomi saqlanib qolgan ekan.

Ayni paytda mahallamiz 550 gektar yerni tashkil qiladi.

BIZNING ARAI-OVUL

Unda 7545 nafar aholi istiqomat qiladi. 979 ga yaqin oila tinch- totuv yashaydi. Oilalar soni yildan yilga ko'payib borayapti. Mahallamizda bitta bolalar bog'chasi, bitta maktab bor. Bundan tashqari, savdo markazi, shifoxona, mahalla guzari, ko'plab oziq- ovqat do'konlari, sartaorshxona, ustaxona sport maydonchalari mahalla aholisiga xizmat qiladi. Shuningdek, mo'juzgina masjid va «Xo'jashqulbobo» ziyoratgohi ham mahallamizdan joy olgan.

2000 nafar nafaqa yoshdagilar doimo mahallamizda o'tkaziladigan tadbirlarga bosh bo'ladilar.

Bizda ko'plab tadbirkorlar, fermerlar bor. Ular mahallaning obod bo'lishida o'z hissalarini qo'shib kelyaptilar. Biz ham mahallamizga munosib inson bo'lishga harakat qilamiz.

Gulnora MAJIDOVA,

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi «Arai-Ovul» mahallasi, Feruz ko'chasi.

Mana, bahorgi ta'til ham nihoyasiga yetdi. Ertaga to'rtinchi chorakning birinchi kuni.

Ustozimiz har gal «Ta'tilda nima ish bilan band bo'ldingiz?» deb so'raydilar. Ularga javobim tayyor.

Mening yoshlari ulug' buvijonim bor. Men ularni juda yaxshi ko'raman. Doimo buvijonimning yonlariga talpinaman. Ayniqsa, mana shu ta'tilda har kuni ular bilan birga bo'ldim. Buvijonimning yaxshi gaplarini tingladim. Ular menga ertaklar,

hikoyalar, hatto rivoyatu hadislardan aytib berdilar.

Aziz tengdoshlar!

Siz ham buvijoningizni yaxshi ko'ring.

Ularning har bir so'zlariga quloq tuting. Bizning baxtimizga mehribon va shirinso'z buvijonlarimiz omon bo'lsin.

Umida

TOSHMUHAMMEDOVA,
Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 36- maktabning 8- sinf o'quvchisi.

BUVIJONIM YAXSHILAR




MAKTABDA NAVRO'Z

Poytaxtimizning Sirg'ali tumanidagi 303 - maktab o'quvchilari ham Navro'z bayramini katta tantana bilan kutib oldilar.

O'quvchilar o'z qo'llari bilan sumalak pishirib, atrof dagilarni xursand qildilar. Ayniqsa, bolalar tomonidan kuylangan xalq laparlari hamda qiziqarli o'yinlar davraga yanada fayz kiritdi.

Siz suratda ko'rib turgan bo'lajak raqqosalar 9- sinf o'quvchilaridir. Barcha maktabdoshlari qatori ular ham bayramda faol ishtirok etishdi.



G'AROYIB BOLALAR

Bir qarashda tengdoshlaridan hech qanday farqi yo'qday ko'ringan opa-uka Go'zaloy va Elbeklar bilan yaqinroqdan tanishsangiz, ularga havasingiz kelishi turgan gap. Endigina 7-13 yoshni qarshilayotgan bu bolalar

qo'lidan dardiga malham topib ketganlar kam emas. Nigohlari muloyim, kamgap, jajji kaftlaridan yoqimli harorat taraluvchi bu noyob qobiliyat egalarini ko'pdan buyon yaxshi bilaman.

-Go'zaloy, sizlarda bunday noyob xislatlar borligi qachondan sezila boshlagan?

-Menda 6-7 yoshimda, ukam Elbekjonda esa ikki yil avval sezilgan.

-Guvoh bo'lishimcha, siz odamlar taqdirini bashorat qila olasiz. Bundan tashqari yana qanday qobiliyatlarga egasiz?

-Bosh, qo'l, oyoq, bel og'riqlari, oshqozon-ichak kasalliklariga tashxis qo'yib, qo'llarimiz yordamida bioquvvat orqali davolay olamiz. Shu bilan bir qatorda ikkimizning ham qo'l, kaft, yuzlarimizga qoshiq, sanchqi kabi turli temir narsalar yopishib qoladi. Bu xususiyatning tobora kuchayib borayotganidan ba'zan o'zim ham hayron qolaman.

-Har kimga nasib etavermaydigan bu qobiliyat

sizlarga kimdan o'tgan?

-Bizdagi xislatlarning barchasi onam Orzigul Bobojon qizidan o'tgan. Onamga esa 115 yoshga kirib vafot etgan katta momomiz ko'p narsalarni o'rgatgan ekanlar. Onamning buvilari Bo'ron Maxsum ham nafasi o'tkir tabib bo'lib, u kishining nomlari mashhur eshon sifatida tarixda qolgan ekan.

-Ollodan biror nimani chin dildan so'rasam, tezda amalga oshadi dedingiz. Maktabga dars tayyorlamay borgan kuningizda ham shunaqa tilak qilganmisiz?

-Odatda hamma darslarimni o'z vaqtida tayyorlayman, lekin bir kuni qandaydir sabab bilan matematika fanidan berilgan topshiriqlarni bajarmagan edim. O'rtoqlarim oldida uyalishni istamaganim uchun «O'qituvchim shu bugun mendan o'tilgan mavzuni so'ramasa edi», deb chin yurakdan niyat qilgan edim, hammasi men xohlaganday bo'ldi.

7-sinf o'quvchisi Go'zal Xudoyberganova noyob xislatlar egasi bo'lishi bilan bir qatorda, tengdoshlari orasida o'tkazilgan ko'pgina ko'rik-tanlovlarning g'olibasi hamdir. U raqsga tushishni, kitob o'qishni juda sevadi. Halima Xudoyberdiyeva, Umida Abduazimova, Halima Ahmedova kabi el nazariga tushgan shoirlarimizning she'rlarini zo'r qiziqish bilan mutolaa qiladi. Ukasi Elbekjon esa rasm chizishni, turli-tuman rasmlarni tomosha qilishni yoqtiradi. Hali bog'cha davridanoq kurash to'garagiga qatnashish uning zavqli mashg'ulotiga aylangan.


Shu o'rinda bir narsaga e'tibor beraylik. Bu dunyoda tasodif yo'q deyishadi mashoyixlar va ... zamonaviy olimlar. Orzigul Qoraqalpog'istonning Beruniy shahrida tug'ilgan. Toshkentning «Beruniy» metrosi yonidagi Beruniy mahallasi, Beruniy ko'chasida yashaydi, farzandlari esa Abu Rayhon Beruniy nomidagi 243 -

maktabda o'qishadi.

G'aroyib qobiliyatli bolalarga noyob xususiyatlarini yanada rivojlantirishga, kelgusida ilm-fanga, qolaversa, xalq tabobatiga xizmat qilib, dardmandlar dardiga oro kirishlariga tilak bildirib qolamiz. Xislatni tarbiyalab, aql ko'zini ravshan qilish aslida o'z qo'lingizdadir. Ayni paytda Go'zaloy she'r ham yozadi. Bir she'rini diqqatingizga havola etib, xislatli bolalarga «Balli» deymiz.

TOHIRA.

Bu sirli olam



EZGU SO'Z AYTGAN KITOB

Yosh ota-onalar bandalarga tafakkur in'om etuvchi Yazdonga iltijo qilib, «Menga ishbilarmon, xonadonim, shaharu mamlakatim shuhratini dunyoga ko'z-ko'z qiladigan o'qimishli, sog'lom o'g'lon ber», deb so'rashar ekan. Shuningdek, och qolish va to'yib ovqat yemaslik kishilarning axloq-odobiga ham salbiy ta'sir etadi, deb hisoblangan «Avesto»da: «Oziq-ovqat yaxshilanishi bilan insonning axloq-odobi ham kuchayadi. Ovqat mo'l-ko'l bo'lsa, ilohiy so'zlar yaxshiroq idrok etiladi» («Yasna», 33,3-bob). Zeroki, oilaviy xushchaqchaqlik va baxtiyorlik manbai yaxshi kun ko'rish uchun darkor bo'lgan narsalarning mo'l-ko'lligidir» («Yasna», 30).

Oliy tangri g'aflatdan yiroq, o'z ilmiga, kasbiga sadoqati, so'zga chechanligi, ishga uddaburonligi, mas'uliyatligi va fidoyiligi bilan ajralib turadigan zardusht ta'limotini o'ziga singdirgan ustoz-muallimlarni yoqtiradi: «Chunki ular o'z donoligi, hunarmandligi bilan Yazdonga yaqin kishilar hisoblanadilar, ular xalq qalbini haqiqat nuri bilan yoritadilar».

Shuningdek, «Avesto»da bolalar zehni, ularning mustaqil tafakkurini o'tmashtiradigan, ayni chog'da, yoshlarning aqlini zanglatadigan, iymon-e'tiqodini shakllantirish bilan bog'liq masalalarga ham batafsil to'xtalib o'tganligi ibratga loyiqdir.

«Avesto»da Gershasp, Elikbek, Xubbi kabi afsonalar ham berilganki, ularning har biri yoshlar uchun hayot sabog'i bo'lib xizmat qiladi. Elikbek haqidagi afsonada Elikbekning qabiladoshlarini yovuz jinlardan qutqarish uchun yakka o'zi kurashga o'tlanishi, ularga yo'lbarsdek tashlanib g'alaba qozonishi mardlikka undaydi. El-yurtga yuqumli kasallik tarqatayotgan uch ko'zli, olov tusli Rakshomani ham yengishi haqidagi hikoyalar yoshlar

qalbida vatanparvarlik tuyg'usini uyg'otadi.

Gershasp ham yurtga ofat keltirayotgan ajdarga qarshi kurashga o'tlanib, 40 gazli qilich bilan uni nimta-nimta qilib tashlaydi. Shu tariqa bahodir Gershasp kishilarni halokatdan qutqaradi. Agar Elikbek va Gershasplar xalq uchun, uning baxt-saodati, osoyishtaligi uchun aziz jonlarini xatarga qo'yib jangga kirmaganlarida edi, ular xalq qahramoni darajasiga ko'tarilmagan bo'lardi. Farzandlar albatta otalarning bunday jasoratlarini takrorlaydigan mard va jasur insonlar bo'lib yetishishlari uchun «Avesto» sahifalariga bitilgan hikmat durdonalaridan bahramand bo'lislari maqsadga muvofiqdir. Chunki «Avesto» ezgu so'z va ezgu fikrlar aytilgan muqaddas kitobdir.

SIDRAPUSHLIK

O'zbek xalqi urf-odatlarida ham zardushtiylikda rasm bo'lgan «sidrapushlik» udumining o'ziga xos izlari uchraydi. Jumladan, XX asrning o'rtalarida erkaklar yaktak kiyib, bellariga belbog' bog'lab salla o'rashgan. Odatda belbog' va salla o'rash bolalikdan o'smirlik yoshiga o'tgan davrda bajarilgan. Belbog' doimo uch marta tugun qilib bog'langan. Qolaversa, o'zbeklar orasida boshqa yurtlardan kelgan mehmonlarga, nikoh to'yida kelinning xonadonida kuyovga to'n, do'ppi kiydirish va beliga belbog' bog'lash udumi hozir ham keng urf bo'lgan. Bu udumning asosida birtomondan mehmonga, birtomondan o'sha mehmonning xalqimiz safiga ramziy qabul qilinganligi yoki kuyovning kelin oilasining yangi a'zosi bo'lganligini anglatgan. Bizningcha, xalqimiz orasida to'n kiydirib, belbog' bog'lash bilan bog'liq udumlar zardushtiylikdagi «sidrapushlik» marosimining transformatsiyaga uchragan shakli bo'lsa kerak.

ISIRIQ

TUTATIB...

Isiriqdan kasalliklarning oldini olish maqsadida keng foydalanilgan. Xususan, uyda birov bemor bo'lsa, chaqaloqni birinchi marotaba beshikka belayotganda, kelin tushirganda, uyga begona odam kelib ketgan paytda ehtiyot chorasi sifatida isiriq tutatilgan. Ilmiy tibbiy ma'lumotlarga ko'ra isiriq tutuni yuqumli kasallik tarqatuvchi mikroba va bakteriyalarni yo'qotadi. U revmatizm, radikulit, gripp, bezgak kabi kasalliklarni davolashda yaxshi samara beradi. Demak, «Avesto» isiriqqa ham befarq emas.

Zardushtiydagi ko'plab marosimlarning odatlari xalqimizning turmush tarzida bugungi kungacha saqlanib qolgan. «Dalaga qo'sh chiqarish», «Ekin sayli», «Qo'sh oshi», «Ona bug'doy», «Hosil bayrami» kabi marosimlar ana shular jumlasidandir.

«Avesto»da nikoh va oilaviy burch masalasi ham muhim o'rin tutadi, «Avesto»da oila qurish, jufti halol tanlashda shoshma-shosharlikka yo'l qo'ymaslik, ota-ona, keksalar maslahatiga quloq tutish xususida diqqatga molik mulohazalar mavjud.

Xullas, «Avesto» ajdodlarimizning tabiiy ehtiyojlari zamirida paydo bo'lgan kitobdir.

Zilola HAYDAROVA,

Andijon Davlat Universiteti filologiya fakulteti

2-bosqich talabasi.

Istiqlol umidlari

She'riyat bo'stoniga endigina qadam qo'yayotgan tengdoshingiz Umida Fozilova Chilonzor tumanidagi 106- maktabning 7-sinfida tahsil olmoqda.

Bu qizaloqning yuragida she'riyatga chuqur havas bor. Bitayotgan satrlarida bahor gullarining uforlari, beg'ubor zaminimizni ardoqlash tuyg'usi mujassam. Tengdoshingiz Umidaxonga - oq yo'l tilagan holda she'riyat bog'idagi umidli qadaming qutlug' bo'lsin, deymiz.



O'ZBEKISTONIM

Ko'm-ko'k erur osmonim,
Qarog'imda posbonim,
Hech tuganmas dostonim,
O'zbekistonim.
Qancha so'zlar aytayin,
Tonggi yel kabi mayin,
Gul bog'ingga qaytayin,
O'zbekistonim.

ORZU

Orzu qildim malika bo'lishni,
Orzu qildim oyday to'lishni.
Atrofimda yulduzlar bilan,
Suhbat qurib ko'nglin bilishni.
Orzudadir hayot nafasi,
Jo'shqin kuylar go'zaldir sasi.
Albat bo'lgay ular ijobat,
Agar bo'lsa ko'ngil havasi.
Faqat havas kamlik qiladi,
Dilda ishonch omad tiladi.
Mehnat, mehnat va yana mehnat,
Intilganni tole biladi.

ONAJON...

Sizni sevib izlab qolaman,
Qo'llaringga qalam olaman,
Mehringizni she'rga solaman,
Onajon...
Bormi sizdek mehribon yurak,
Faqat sizsiz hammaga kerak,
Eng go'zal gul, bokira tilak,
Onajon...

GO'ZAL BAHOR

Izg'irin qayga qochdi,
Atirgulim yuz ochdi.
Tong chog'ida bulbulga,
Xushbo'y atrini sochdi.
Tebranadi maysalar,
Qarang bir jilmaysalar.
Go'zal bahor bog'larda,
Dilga intiqlik solar.

Umida FOZILOVA.

KICHKINTOYMIZ - G'JINGTOYMIZ

Zangiota tumani Xalq Ta'limi bo'limiga qarashli 14- maktabgacha tarbiya muassasasida Faoliyat oyligi bo'yicha musiqadan «O'zbek milliy raqs san'ati» mavzusida seminar bo'lib o'tdi. Ushbu seminarga tumandagi barcha bog'cha mudiralari va musiqa rahbarlari taklif etildi. Xalqimizning boy merosi bo'lgan milliy raqs san'atini jajjilar ongiga singdirish borasida 14-maktabgacha tarbiya maskanida bir qator ibratli ishlar amalga oshirilgan. Ushbu tarbiya maskaniga o'zining 22 yillik mehnat



tajribasiga ega bo'lgan Hikoyat opa G'afurova yetakchilik qiladi. Bu yerda jajjilarni yayrabdam olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bolalarning o'yin maydonchalari, mashg'ulot xonalari talab darajasida. Ayniqsa, musiqa rahbari Muqaddas Akbarova va «Nilufar» raqs guruhining boshlig'i Rustam Shoabdurasulovlar kichkintoylarga musiqa va raqs sirlarini sidqidildan o'rgatishgan. Kichkintoylar ijrosida yangragan she'r va qo'shiqlar hamda jozibali raqsalar yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi. Ushbu seminarda tuman Xalq Ta'limi



Bo'limi uslubchisi Umida Ashrapova qatnashib, bog'cha mudiralari va musiqa rahbarlariga kelgusida ana shunday seminarlarni yanada mazmunan boy o'tkazish borasida yo'l-yo'riqlar ko'rsatdi.

Elvira

OTAMURODOVA.

ODAMLAR DUOSINI OLAR, SHIFOKOR

Suratda sizga tiyrakkina boqib turgan bu qizaloqning ismi-sharifi Nazira JUMABOYEVA. U



Chirchiq shahridagi 12 - maktabning 2-sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Nazira bilan yaqindan tanishish maqsadida suhbat qurdik.

-Nazira, avvalo maktabingiz, ustozlaringiz haqida gapirib bersangiz...

-Men bu maktabga birinchi marta kelganimda ustozimiz Farida opa Yo'ldosheva mehribonlik bilan kutib olgandilar. Oyijonim meni ularning qo'llariga topshirar ekanlar, menga: «Yaxshi o'qigin, qizim, yana meni uyaltirib qo'ymagin, ustozlaringni oldida», dedilar. Men ham xuddi ana shu kundan boshlab yaxshi o'qishga, boshqalardan orqada qolmaslikka harakat qildim. Ustozimiz Farida opani hammamiz yaxshi ko'ramiz.

Ular sinfimizdagi har bir o'quvchi bilan birma-bir shug'ullanib, darslarni tushuntirishdan erinmaydilar.

-Nimalarga qiziqasiz?

-Men oyijonimga uy yumushlarida birinchi yordamchiman. Ular bilan birgalikda oilamizdagilarga yoqadigan taomlarni pishiramiz. Darsdan kelganimdan so'ng, uylarni tozalab chiqaman va kechki ovqatni pishirishda ko'maklashaman.

-O'zingiz mustaqil ovqat pishira olasizmi?

-Og'zaki bilamanu lekin oyijonim hozircha meni gazplitasi oldiga yaqinlashtirmaydilar. Hali kichkinasan, deydilar. Ammo «Vinegret», «Olivye», «Baliqli salat»larni tayyorlay olaman. Masalliqalarini oyijonim pishirib beradilar. Men esa to'g'rab, aralashtiraman. Yana shirinliklar pishirishni o'rganmoqchiman.

-Uyngizdagilar tayyorlagan taomlaringizni maqtashadimi?

-Albatta, juda shirin bo'libdi, deb maqtab-maqtab yeyishadi.

-Kitoblar ham o'qib turasizmi?

-Ha, ustozimiz kimki ko'p kitob o'qisa, so'z boyligi ortadi, bilimi oshadi, deydilar. Menga ko'proq ertak kitoblari yoqadi. Chunki ularda doimo yovuzlikni ezgulik yengib chiqadi.

«Olmos botir», «Ochil dasturxon», «O'zbek xalq

ertaklari» kitoblarini o'qib chiqqanman.

-Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?

-Men kelajakda shifokor bo'lishni xohlayman. Chunki ular odamlarni davolaydilar. Odamlar esaularni doimo duo qilib yurishadi. Bundan tashqari, oq xalatlari shifokorlarga juda havasim keladi.

-Suhbatimiz so'nggida tengdoshlaringizga, ustozlaringizga gazetamiz orqali aytadigan dil so'zlaringiz bormi?

-Ha, albatta. Men ustozimiz Farida opani, yana maktabimizdagi barcha ustozlarimizni yaqinda nishonlangan Navro'z bayrami bilan tabriklayman. Shuningdek, oyijonimni ham. Ular doim sog' bo'lishsin. Tengdoshlarimga esa «yaxshi» va «a'lo» baholarga o'qishlarini tilab qolaman. Yurtimiz tinchligini, xalqlar farovonligini tilayman. Yana men tezroq katta bo'lib, hammaga qo'limdan kelgancha yordam berishni orzu qilaman.

Bu jajji tengdoshingizga orzularing hamisha hamrohing bo'lsin, deymiz!

Ozoda TURSUNBOYEVA suhbatlashdi.



Qonshu

Maktabdan chiqib

trolleybus bekatiga yo'l

oldim. Mendan oldinroqda o'g'ilchasini yetaklab ketayotgan ayol diqqatimni tortdi. O'ttiz yoshlar chamasidagi bu ayol orasta kiyingan, yuzlari oppoq, qoshlari yoysimon, kipriklari uzun-uzun.

Buncha go'zal bo'lmasa bu juvon, o'ylayman xayolan. O'g'ilchasining shirinligini aytmaysizmi?

Bekatga trolleybus kelib to'xtadi. Kunduz kuni bo'lgani uchun trolleybusda odam siyrak. Bo'sh o'rindiqqa o'tirib, ko'zlarimni yumib oldim. Uyga yetib olguncha biroz charchoqlarimni yozmoqchi bo'ldim. Qulog'imga onabolaning suhbatini chaldim:

-Oyijon, qarang o'rindiqdan pul topib oldim. 200 so'm ekan.

-Yaxshi, - dedi onasi.

-Bu pulga-chi men kompyuter o'ynashga boraman, maylimi?

-Mayli, hozirdan kompyuterga qiziqadigan o'g'limdan aylanay.

Ko'zlarim yumuq holda ayolning o'g'lini bag'riga bosayotganini his qilaman. Ko'z o'ngimda o'tmish jonlanadi.

...Bu voqea 1966 yili bo'lgan edi. Qishki ta'til vaqti. Sovuq zabtiga olgan. Azonda shirin uyquda yotsam, kimdir ohista turtayotganini sezdim.

-Turaqol qizim, tong otdi, - onamning mehribon, mayin ovozlardan uyg'onaman.

-Oyijon, birpas uxlay, hozir ta'til-ku, - deyman erinchoqlik bilan va yana ko'zlarimni yumib olaman.

-Singlingning suti tugab qolibdi, qizim. Chaqarga borib sut olib kelgin. Turaqol, tag'in sut tugab qolmasin.

Noiloj o'rnimdan turib, yuz-qo'llarimni yuvaman.

-Kun sovuq, issiqroq kiyinib ol, - deydilar onam.

Onamning qo'llaridan pul va sut idishni olib, yo'lga tushaman.

-Ehtiyot bo'lib yurgin, yo'llar sirpanchiq, - tayinlaydilar onam.

Uyimiz Chuqur ko'prik mahallasida edi. Chaqargacha bo'lgan yo'lni sirpana-sirpana bosib o'tdim. Erta sahar bo'lgani sababli ko'chalarda odam siyrak. Qo'llarim sovuqdan qotib qolgan. Uch litr sut olib, izimga qayta boshladim. Shu mahal yo'l chekkasida qor ustida yotgan

YO'LDAN TOPILGAN PUL

(Voqeiy hikoya)

bir dasta pulga ko'zim tushdi. Ko'zlarim charqlab ketdi. Xursand bo'lib pulni yerdan oldim. Hayajonim ichimga sig'may uyga shoshildim. Sovuqning qahri ham, qo'llarimga sanchilayotgan ignachalar ham sezilmas, hamon ildamlardim. Ko'z o'ngimda onamning shodon qiyofasi gavdalanadi.

Juda yaxshi ish qilibsiz, qizim, deb meni bag'irlariga bosayotgan, pullarni sanayotgan holda qayta-qayta tasavvur qilaveraman.

Ana, uyimizga ham yetib keldim.

-Oyijon, oyijon, - hovliqib nonvoyxonaga kiraman. Bu paytda onam tandirdan non uzayotgan edilar. Qornim ochib ketganidan yutinib qo'ydim.

-Ha qizim, nima bo'ldi? Buncha hovliqasan?

-Oyijon, qarang, men ko'p pul topib oldim, - deya xursandligimdan kaftimdagi pullarni onamga uzataman.

-Qayerdan olding?

-Chaqardagi choyxonaning orqa tarafida yerda yotgan ekan.

Onam menga qahrli boqdilar. Yuragim shuv etib ketdi. Yo'l-yo'lakay tasavvurimda aks etgan onam qiyofasini, xursandlik alomatlarini ko'rish o'rniga... Xo'rlikim kelib, labimni tishladim.

-Hoziroq topgan joyingga olib borib tashlab kel! - dedilar onam buyruq ohangida.

-Yo'q, bormayman, yo'l uzoq, kun sovuq, sovuqotib ketdim, - iltijo qilaman men.

-Men seni sut olib kelish uchun yuborganman, ko'chadan pul topib kelish uchun emas. Qolaversa, pulni tushirib qoldirgan odam izillab qidirayotgandir, tez borib tashlab kel.

Onamning amrona so'zlaridan noiloj yo'lga tushdim. Tomog'imga tiqilib kelayotgan yig'ini qaytarishga harakat qilaman. Yurgan sari yo'lim unmas, oyoqlarim orqaga qarab ketayotgandek tuyular, jondan aziz onajonimni yomon ko'rib ketayotganga o'xshardim.

Nihoyat Chaqarga yetib keldim. Bekatga tramvay yaqinlashmoqda edi. Yon-atrofdan hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilgach, pulni yerga tashladim tez-tez odimlay boshladim. O'zimni og'ir yukdan xalos bo'lgandek sezardim.

Ustoz ijodi

-Qizim, hoy qizim!

O'g'irilib orqamga qaradim. - Puling tushib qoldi. Ellik yoshlar chamasidagi erkak kishi menga pulni uzatar edi.

-Amakijon, bu pullar meniki emas.

-Ko'chada sendan boshqa hech kim yo'q-ku. Men hozir tramvaydan tushdim.

-To'g'ri, pulni men tashladim, amaki. Boya shu yerdan topib olgan edim. Uyga olib borsam oyimlar, olgan joyingga qo'yib kel, deb qaytarib yubordilar.

-Onang halol, birovning haqidan qo'rqadigan ajoyib inson ekan. Bu pulni choyxonachiga berib qo'yamiz. Pulni qidirib yurgan odamga qaytaradi.

Amaki choyxonachiga pulni berib chiqdilar va biz birga yo'limizda davom etdik. Bu begona kishining onam haqida aytgan iliq gaplari tasavvurimdagi boyagi onam qiyofasini o'zgartirib yuborgan edi.

Uyga yetib keldim. Oila a'zolarimiz issiqqina tancha chetida nonushtaga o'tirishgan edi.

-Voy, asal qizim, dastyor qizim, kelaqol, sovuq qotdingmi, kel. Oyoqlaringni tanchaga tiq, sut olib keldingmi? Mijjalaringda qotib qolgan ko'z yoshlarimni artib, meni bag'irlariga bosdilar.

Bunchalar mehribonsiz oyijon, o'ylayman men onamning ko'ksiga bosh qo'yib. Issiq non, shakar choy quyib, meni tez-tez, issiq-issiq ichishga undayotgan onam ko'zimga farishtadek ko'rinar edi.

Men katta bo'ldim, ulg'aydim. Mana, 25 yildan beri qanchadan-qancha o'quvchilarga bilim berib kelaman. Har safar halollik, rostgo'ylik mavzuida dars o'tganimda o'quvchilarimga bu voqeani qayta-qayta so'zlab beraman.

Hozir ham trolleybusda ketar ekanman, bu hikoya xayolimda yana jonlandi.

Rahmat sizga oyijon, bizni halol mehnat bilan, rostgo'y qilib tarbiyalaganingiz uchun, pichirlayman men.

Boyagina meni ohangraboday o'ziga tortgan bu ko'hlik ayol, o'g'lini o'zgalar haqqidan, topilgan pulni olmaslikdan qaytarmaganligi sababli ko'zlarimga xunuk ko'rinib ketdi.

Lobar SODIQOVA,

Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumani,

46-o'rta maktabning boshlang'ich sinf

o'qituvchisi.

"MEN ASKARMAN"

«Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakati faoliyati Shayxontohur tumanidagi 192 - maktabda ayniqsa avjlangan. Tuman «Kamolot» sardori, 10-sinf o'quvchisi Muhiddin ALIMBOYEV bilan shu haqda suhbatlashdim.

-«Kamolot» YO.I.H. ta'sis etilgandan beri sardorman. Shahar miqyosida uyushtirilayotgan katta loyihalarda ishtirok etib kelaman. Ba'zi vaqtlarda darsdan qolishga ham to'g'ri keladi. Lekin o'qishni o'zlashtirishga harakat qilaman. Chunki har bir sardor mas'uliyatni o'z zimmasiga olib, o'quvchilarga ibrat bo'lishi kerak.

-Katta loyihalarda ishtirok etganman, deb aytib o'tdingiz. Shu loyihalardan birortasi haqida ma'lumot bersangiz?

-Masalan, harbiy qismlardan birida bo'lib o'tgan «Men askarman» loyihasida ishtirok etdim va o'zim uchun ko'plab qiziqarli voqealarni kashf qildim. Askar hayotini biz oddiy tasavvur qilar ekanmiz. Aslida esa unday emas ekan. Erta tongdan uyg'onishga o'rganmaganimiz uchunmi, ozgina qiyinchiliklar bo'ldi. Avvallari armiyada xizmat burchini o'tayotgan akalarimizga qiziqish bilan qarab yurardik. Endi o'zimiz ham harbiy kiyim kiydik. Menimcha, o'sha kundan beri ancha «ulg'ayib» qoldim.

-Hozirgi kundagi rejalaringiz qanday?

-Hozirda rejamizda katta forum o'tkazish masalasi turibdi. Undan tashqari, maktabimizda «Umid» nomli o'z gazetamizni chop etmoqdamiz. Men gazetaning «bosh muharriri»man. Gazetaning har bir soni chiroyli,


o'quvchilarning talabi darajasida chiqishini xohlayman va shunga harakat qilmoqdaman. Har yili maktabimizda o'quv yili oxirida «Umid-show» deb nomlangan tadbir o'tkaziladi. Bu yil a'lochi va iqtidorli o'quvchilarga «Umid» yorliqlari topshiriladi. Hozirgi kunda bizning bu shou-tadbirimizga boshqa maktablar ham qiziqib, hatto tomosha qilish uchun kelishmoqda. Shuning qiziqarli o'tishini esa «Umid» markazimizning Prezidenti Yayra Asilovanning xizmatlari

Har bir maktab o'quvchisining o'z tashkilotiga a'zo bo'lishini istayman. Hozirgi kunda hamma ishlar joyida. Lekin tashkilot rivoji uchun

bundan ham ko'proq ishlarni amalga oshirsak, nur ustiga a'lo nur bo'lardi.

O'quvchilar esa o'z ustida tinmay izlanishdan charchamasliklarini istardim. Imkoniyat bor ekan, faqat va faqat o'qish kerak, o'z bilimni oshirib borish kerak. Chunki kelajak bizning qo'limizda, demak uning yaratuvchilari ham biz.

Muhiddin ALIMBOYEV,
«Kamolot» sardori.



Suratdagi siz ko'rib turgan harbiy kiyimdagi yigitlar askarlar emas, sizlarning tengdoshlaringiz, «Kamolot» Yoshlar ijtimoiy harakatining sardorlaridir.

katta. Rejalar ham, izlanishlar ham juda ko'p. Bularning barchasida esa menga do'stlarim Sherzod, Shavkat, Shahnoza, Odil, Yayra, Asror, Saidalar ko'mak beradilar.

-Do'stlaringizni tilga oldingiz. Do'stlik siz uchun qanday tushuncha?

-Bilasizmi, ayrim vaqtlarda darslarga ulgurmay qolishim mumkin. Shunday vaqtda yonimda meni tushunadigan, men bilan hamnafas bo'lgan do'stlarimni ko'rib, quvonaman. Nafaqat meni, balki ularning ham men bilan birga amalga oshirayotgan ishlari ham olqishga loyiq.

Muhiddin bilan suhbatlashar ekanman, har bir o'quvchi u kabi o'z so'ziga, o'z minbariga ega bo'lsa, kelajakda ulardan komil insonlar yetishib chiqadi, deb ishonch bilan aytilish mumkinligiga amin bo'ldim.

Ma'suda ABDUQODIR qizi
suhbatlashdi.



ZULAYHO

Mustaqil yurt bolalari
iqtidorlidir

Ko'zlari teran boqib turgan bu jajjigina qizni xotin-qizlar bayrami nishonlanayotgan kunlari - «Ona buyuk zot» mavzusidagi tadbirni boshqarayotganda uchratib qoldim. Zulayho Xolnazarova ekan.

-Zulayho aslida 6-sinfda tahsil olishi lozim, - dedi maktab rahbari Baxtiyor Ro'zimatov, - ammo u 9-sinfda o'qimoqda. Jiddiy, har bir harakati chaqqon bu qiz davrani jozibali boshqarishi bilan birga she'rlarni ma'noli o'qir, matnlarni ifodali talaffuz qilar, zavqlantiruvchi raqslari bilan tomoshabinlarni o'ziga jalb etardi.

Tadbir yakunida Zulayhoni suhbatga chorladik.

-O'zingdan kattalar bilan o'qish qiyin kechmayaptimi?

-Biroz bilinadi. Ammo sinfdoshlarim, o'qituvchilarim tushunmaganlarimni jon-dili bilan o'rgatishadi. Oilada ota-onam, akalarim, opalarim ham ko'mak berishadi. Qolaversa, o'tilayotgan barcha mavzularni ustozlarimiz aniq tushuntiradi.

1995 yilda mazkur maktabning 1-sinfiga o'qishga qabul qilingan Zulayho a'lo o'qishi, tirishqoqligi tufayli bir yo'la 2-sinfga ko'chirildi. 6-sinfdan 9-sinfga o'tkazildi. Mana, 2002-2003 o'quv yilining ham IV-choragi boshlandi. Zulayho hamma fanlarni yuqori ko'rsatkich bilan o'zlashtirayapti. Uning deyarli bo'sh vaqti yo'q. Doimo badiiy kitoblar o'qiydi, bir qator to'garaklarga qatnashadi, tikish-bichish bilan muntazam shug'ullanadi.

Ha, mustaqilligimiz sharofati tufayli maktablarda ta'lim olayotgan iqtidorli, qobiliyatli, zukko o'quvchilarga alohida e'tibor qaratilmoqda, tengdoshingiz Zulayho esa ana shularning biridir.

Abdusuhur QORABOYEV,
jurnalist.

S O'Z O'YINI

PAR		QOM
HAS		LOM
DOL		ZAB
BAK		SAD
MET		MAN
TUR		MOZ
JAN		RAK
AQO		ORA
KASH		YGA
AFI		FIS

Bo'sh qolgan katakchalarga qolib ketgan harflarni to'ldirib chiqing.

Tuzuvchi:
Shuhrat YODGOROV,
Poytaxtimizdagi 84 - maktabning
5 - sinf o'quvchisi.

Aziz bolajonlar! Orangizda hind filmlarini yoqtirmaydiganlar juda kam uchrasa kerak-a? «Ramayana», «Mahobhorat», «Gang suvlari loyqalandi», «Sangam», «Mirza G'olib» kabi filmlarni sevib tomosha qilamizu ularni xuddi o'z ona tilimizda yaratilgandek qilib tarjima qilib berayotgan insonlarni ko'pchiligimiz tanimaymiz ham.

Omadni qarangi, «Istiqlol umidlari» to'garagimiz a'zolari ana shu filmlar tarjimoni Amir aka Fayzullayev bilan tanishish baxtiga muyassar bo'lishdi. 1971 yilda G'afur G'ulom nomli nashriyotning «Sharq» bo'limiga kichik muharrir bo'lib ishga kelgan Amir akaning hind kinolariga ishtiyogi baland, Beruniy, Bobur kabi buyuk allomalarimiz

O'zining to'garak



kamol topgan yurtga mehri bo'lakcha bo'lgan. G'allaoroldagi Navoiy nomli 7 - maktabda o'qib yurgan damlarida musavvir bo'lishni orzulagan Amir aka hind, urdu tillarini mukammal o'rganib, hind xalqining tarixini o'rganishga kirishib ketdilar. Buni qarangi, biz Hindistonda hukmronlik qilgan yagona yurtdoshimiz deb hisoblab yurgan Bobur bobomiz ularning kenja vakili ekan. Bundan ming yil avval Ellutmish ismli o'zbek yigiti Hindistonni boshqarib kelgan ekan.

-Bir dumalab sizlar qatori bola bo'lib qolsam, bor hayotimni hind tiliga bag'ishlagan bo'lardim,-dedilar Amir aka ularning so'zlarini diqqat bilan tinglayotgan o'g'il-qizlarga. - Chunki bu xalqning donoligi, totuvligi, samimiyligi menga juda yoqadi. Sizga ham hind, urdu, ingliz tillarini o'rganishni maslahat beraman. Til o'rganib, Hindistonga borgan odam qop-qop ilmni miyasiga ham, yuragiga ham joylab qaytishi tayin. Yana juda ko'p kitob o'qinglar. Kitob bilan do'stlashgan bola aslo kam bo'lmaydi. Yoshligimda maktabimiz kutubxonasidagi hamma kitoblarni o'qib chiqqanim uchun tuman gazetasiga men haqimda maqola yozishgan edi...

Hozirgi kunda «Jahon adabiyoti» jurnalida «Sharq» bo'limining boshqarish bilan birga jahon tillari universiteti talabalariga hind tilidan saboq berib kelayotgan boburshunos olim Amir aka Fayzullayev bilan bo'lgan uchrashuv bolajonlarda katta taassurot qoldirdi.

BOYCHECHAK


Navro'z guli boychechak,
Bahordan berar darak.
Gullarning malikasi,
Boychechagim-boychechak.
Kulib, chiroy ochadi,
Xushbo'y hidin sochadi.
Ko'rsam, quvonar ko'zim,
Aylanay sendan o'zim.



Shahnoza OQBO'TAYEVA,
Navoiy viloyati, Xatirchi tumanidagi
17 - o'rta maktabning
7 - «A» sinf o'quvchisi.

QALDIRG'OCH

Chug'ur-chug'ur qaldirg'och,
Uy shiftiga in soldi.
Ariqlarning bo'yidan,
Tumshug'ida loy oldi.
Harchand charchab-hormasin,
Maqsadidan qaytmadi.
Ukam ikkalamizni,
Hasharga ham aytmadi.



Nasiba QAMBAROVA,
Farg'ona viloyati, Toshloq tumanidagi
21 - maktabning 7 - «G» sinf o'quvchisi.



BAHOR SOG'INCHI

Ezgulikni kuylab,
Iqboldan so'ylab,
O'lkamiz bo'ylab,
Kezaver bahor!


Ko'rking yarashar,
Bog'-rog'lar yashnar,
Kuylaydi qushlar,
Kezaver bahor!

Zilola MARDIYEVA,
Navoiy viloyati, Nurota
tumanidagi 14 - maktabning
2 - sinf o'quvchisi.

HOVUZDAGI OY

Quyosh asta berkinib,
-Salom,-dedi kunduzga.
Salim-chi, derazadan,
Sekin boqar hovuzga.
Suvning ostida oyni,
Ko'r-di-yu bo'ldi hayron.
Va der: «Oysiz qolibdi,
Endi beg'ubor osmon».

Dilrabo
DO'STOBILOVA,
Toshkent shahar,
Yakkasaroy tumanidagi
118 - maktabning 5 - «A» sinf
o'quvchisi.



Andijondagi tasviriy va amaliy san'at litseyining 6- «A»
sinf o'quvchisi Abrorbek KOMILOV chizgan rasmini
«Mening tushim» deb nomlabdi.

DAFTAR

HAMMAMIZNIKI

Daftariga gullarning rasmini chizib o'tirgan Hilolaga opasi achchiqlanib dedi:

-Nega mening daftarimga yozyapsan?
-Opajon, axir uning ustiga «Umumiy» deb yozib qo'yishibdi-yu. Demak, u hammamizniki...

BIR HAFTAGA YETADI

Onasi berilib tishlarini yuvayotgan o'g'li Davrondan ajablanib so'radi:

-O'g'lim, nega tishlaringni ketma-ket yetti marta yuvyapsan?

-Bir haftaga yetadi-da, oyijon,-deb javob berdi Davron.

Adiba ERGASHEVA,
Poytaxtdagi 273 - litsey
maktabning 8 - «A» sinf
o'quvchisi.



JALOLNING KASHFIYOTI

O'qituvchi:

-Qani Jalol, xaritadan Amerikani ko'rsat-chi.

Jalol chiqib ko'rsatib berdi.

-Juda yaxshi, o'tir. Bolalar, aytinglar-chi, Amerikani kim kashf qilgan?

-Jalol,- bir ovozdan javob berishdi ular.


Jasur MAVLONOV,
Jizzax viloyati, Zafarobod
tumanidagi Amir Temur nomli
8 - maktabning 6 - «A» sinf
o'quvchisi.

O'ZBEGIM FAXRI

Qalbingiz mardlikka to'ladir har dam,
Ezgulik yo'lida odimlab ildam.
Yurt uchun har ishda hoziru nozir,
O'zbekim faxrisiz, Muhammadqodir!

Elimiz g'ururi sizdek mard o'g'lon,
Omadli bo'lingiz, yo'lingiz ravon.
Siz yuksak cho'qqigga intilavering,
Siz-la faxrlanar so'lim Andijon.

Siz xalqim ishongan jasur o'g'loni,
Suyangan tog'isiz, sodiq posboni.
Kamtarin insonsiz, o'zingiz botir,
O'zbekim faxrisiz, Muhammadqodir!



Zohida
BEKNAZAROVA,
Andijon shahar
Kasb-hunar
kolleji o'quvchisi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida ofset
usulida bosildi.

Korxonalar manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.

Buyurtma № G-153
Gazetani
Ma'suda

IRISNAZAROVA
sahifaladi.

Navbatchi:
Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75



Nashir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa

MUSURMONOVA,

Qahramon

QURONBOYEV,

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir

o'rinbosari),

Po'lat MO'MIN,

Mukarrama

MURODOVA,

Tohir MULLABOYEV,

Ergashvoy SARIQOV.

Nashir «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida ofset
usulida bosildi.

Korxonalar manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.

Buyurtma № G-153
Gazetani
Ma'suda

IRISNAZAROVA
sahifaladi.

Navbatchi:
Feruza ODILOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-63-08
144-63-75

